

USTOZLAR UCHUN

5

soni

oktabr 2020



Bo'lajak oliy ma'lumotli

mutaxassislarda kasbiy madaniyatni shakllantirishning ba'zi bir jihatlari

Buxoro Davlat Universiteti pedagogika kafedrası

o'qituvchisi Saidnazarova

Gulshan Boltayevna. Jondor tuman 32-maktab

geografiya fani o'qituvchisi Sayitnazarova Gulhayo Bolta qizi.

Rezume. Ushbu maqolada kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan kadrlarning kasbiy madaniyatini shakllantirish masalalari hamda kasbiy madaniyatni shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar yoritilgan.

Tayanch so'zlar: mahorat, ma'naviyat, kasbiy faoliyat, kasbiy tarbiya, kasbiy faollik, kasbiy madaniyat, kasbiy kompetentlik.

Abstract. This article explores the issues of the formation of a professional culture of future staff in professional colleges, as well as factors affecting the formation of professional culture.

Key words: skill, spirituality, professional activity, professional education, professional activity, professional culture, professional competence.

Резюме. В этой статье раскрыты вопросы формирования профессиональной культуры кадров в профессиональных колледжах, а также факторы, влияющие на формирование профессиональной культуры.

Ключевые слова: мастерство, духовность, профессиональная деятельность, профессиональное воспитание, профессиональная активность, профессиональная культура, профессиональная компетентность.

Bugungi kunga kelib shaxs madaniyati ayniqsa o'qituvchining pedagogik madaniyatini shakllantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Chunki kishilik jamiyati rivojlangani sari kasb madaniyatiga nisbatan kuchli ehtiyoj vujudga keladi. Bu muammoni hal qilish uchun esa avvalo har bir o'qituvchining pedagogik madaniyatini shakllantirish lozim. Buning uchun esa dastlab shaxsning umumiy hamda kasbiy madaniyati falsafiy asoslarini o'rganish talab etiladi. Inson bir tomondan tabiatning bo'lagi, ikkinchi tomondan esa madaniyatli mavjudot namunasidir. Bu borada insonning o'ziga xosligi, uning ijtimoiy-ma'naviy hamda madaniy mohiyatni yaratish va uni o'zlashtirish, qobiliyatiga egadir. "Madaniyat"

deganda biz birinchi navbatda o'qimishlilik, ta'lim –tarbiya ko'rganlik, ziyolilik, ma'rifat tushunchalari tushunamiz. Madaniyatni egallash jarayoni insonni ajdodlari tomonidan yillar davomida to'plagan ijtimoiy tajribasini o'zlashtirish bilan bevosita bog'liqdir. Madaniyat tushunchasi asrlar davomida to'planib, shakllanib boradigan va inson faoliyatini har tomonlama tavsiflaydigan muhim tushunchalardan hisoblanadi. Kasbiy madaniyat mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi. Madaniyatning bu qismini o'zlashtirish ko'rsatkichlari va natijalari kasbiy layoqatliligi, uni ishlab chiqarish, foydalanish, ishchi holatda saqlab turish qobiliyatlari, kasbiy harakatchanlik, o'qish, bilimlar malakasini oshirish, ixtisoslanish qobiliyati, tashkiliy qobiliyatliligi kasbiy faoliyatning masalalari to'g'risida o'zini o'zi axborot bilan ta'minlash, o'z xatti-harakatlarini birgalikdagi faoliyati bo'yicha hamkasb sheriklari bilan muvofiqlashtirish, qaror qabul qilishda o'zini o'zi idora qilish, mustaqillik, yakuniy natijaga yo'naltirilgan o'zini o'zi tekshirish, rasmiy shaxslar bilan ish yuzasidan olib boriladigan munosabatlarni tuzish va ishga olish hujjatlarini rasmiylashtirishdagi kasbiy, axloqiy ko'rinish, ish joyini va asboblarni tutishi, ilg'or tajriba, innovatsion jarayonlar, zamonaviy texnologiyalarni anglashi va qo'llashning ijodiy qobiliyatlaridir. Kasbiy madaniyat tushunchasi kasbiy bilimlar va ishlab chiqarish faoliyati orasidagi aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Kasbiy madaniyat mazmunida madaniyat va kasbning o'zaro ta'siri mujassamlanib, uning tarkibiga kasbiy ong, kasbiy faoliyat, kasbiy munosabatlar kiradi. O'tgan 20-asrning oxirlaridan boshlab, kasbiy madaniyatni tadqiq etish masalasiga alohida etibor qaratila boshlandi. Quyidagi tadqiqot mavzulari "Pedagogik munosabatlar madaniyati" (K.V.Aksenteva),

"Zamonaviy ishchi madaniyati" (S.A.Anisimov), "Umumta'lim madaniyati" (A.N.Orlov), "Mehnatning kasbiy-axloqiy madaniyati" (F.N.Sherbak) shular jumlasidandir." Kasbiy madaniyatning inson rivojlanishi uchun jamiyat a'zolari ijtimoiy tajribasini o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. V.L.Beninning fikricha, pedagog bo'lmagan shaxslar ham muayyan darajada kasbiy madaniyatga ega bo'lishlari mumkin, chunki pedagogik madaniyat shaxsning umumiy madaniyatini o'z ichiga oladi. Shaxsning kasbiy madaniyati oliy ma'lumotli mutaxassis modeli tarkibiga bir element sifatida kiruvchi shaxsning madaniyatli holatidir, ikkinchidan, o'z ichiga quyidagilarni oladi:



Bo'lajak pedagogning pedagogik madaniyati shaxsning kasbiy madaniyati sifatida ko'rilishi mumkin, uning subyekti o'rnida pedagogik kasb vakillari o'qituvchilar, tarbiyachilar, professor o'qituvchilar va boshqa ta'lim-tarbiya

muassasalari xodimlari bo'lishi lozim. Chunki boshqa kasblardan farqli tarzda pedagogika sohasining barcha turlarida madaniyat va kasbiy madaniyat tushunchalari o'zaro uyg'un holda ifodalanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish hamda pedagogik madaniyat haqida fikr yuritgan olim G.I.Rizz pedagogik madaniyatni hosil qiluvchi tarkibiy qismlar quyidagilardan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

- Maqsadni belgilab olish madaniyati;
- Pedagogik bilimlarni egallash madaniyati;
- Pedagogik dunyoqarash madaniyati;
- Fikrlash madaniyati;
- Hissiyotlarni ifodalash madaniyati;
- U yoki bu hodisalar bo'yicha fikrni ifodalash madaniyati;
- Tashkilotchilik madaniyati;

Ma'naviyatsiz, axloqsiz, yaxshi xulq-atvorsiz, ijodkorliksiz, bir so'z bilan aytganda, ijobiy fazilatlarsiz kadrning kasbiy madaniyatni tasavvur qilib bo'lmaydi. Kishining ma'naviyati uning kasbiy faoliyatida, xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Shunday ekan har bir bo'lajak oliy ma'lumotli mutaxassisda kasbiy madaniyatning ijobiy xislatlari shakllangan bo'lishi kerak.

